

**OLIVER KROMVELNING TARIX SAHNASIGA CHIQISHI
VA ANGLIYA FUQAROLAR URUSHIDAGI O'RNI**

**ВЫХОД ОЛИВЕРА КРОМВЕЛЯ НА ИСТОРИЧЕСКУЮ АРЕНУ
И ЕГО РОЛЬ В ГРАЖДАНСКОЙ ВОЙНЕ В АНГЛИИ**

**OLIVER CROMWELL'S EMERGENCE ON THE HISTORICAL
STAGE AND HIS ROLE IN THE ENGLISH CIVIL WAR**

Alisher Ahmadjonovich Aloxunov

*Farg'ona davlat universiteti
Jahon tarixi kafedrasi dotsenti, PhD.*

alohunov@inbox.ru

tel: +99893-482-08-20

Norxujayev Shaxboz Xusanjon o'g'li

*Farg'ona davlat universiteti
Tarix yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

Annotatsiya

Mazkur maqolada XVII asr Angliya tarixining muhim arboblaridan biri – Oliver Kromvelning siyosiy sahnaga kirib kelishi va uning Angliya fuqarolar urushidagi roli tahlil qilinadi. Kromvelning parlament tarafdarlariga qo'shib, harbiy yetakchiga aylanishi, uning “Yangi model armiyasi”ni shakllantirishdagi hissasi, shuningdek, qirol Karl I ga qarshi olib borgan kurashi asosida u qanday qilib milliy miqyosda yetakchiga aylangani yoritiladi. Maqolada Kromvelning harbiy strategiyasi, diniy e'tiqodlari va siyosiy qarashlari orqali Angliya tarixidagi o'ziga xos o'rni ochib beriladi.

Аннотация

В данной статье анализируется приход на политическую арену одного из важнейших деятелей истории Англии XVII века – Оливера Кромвеля и его роль в Гражданской войне в Англии. Освещается, как Кромвель, присоединившись к сторонникам парламента, стал военным лидером, его вклад в формирование “Новой модели армии”, а также борьба против короля Карла I, на основе чего он превратился в лидера национального масштаба. В статье раскрывается особая роль Кромвеля в истории Англии через призму его военной стратегии, религиозных убеждений и политических взглядов.

Abstract

This article analyzes the rise of one of the key figures in 17th-century English history – Oliver Cromwell to the political stage and his role in the English Civil War. It highlights how Cromwell, by joining the supporters of Parliament, became a military

leader, his contribution to the formation of the “New Model Army,” and how, through his struggle against King Charles I, he rose to national prominence. The article reveals Cromwell’s unique place in English history through his military strategy, religious beliefs, and political views.

Kalit so‘zlar: Oliver Kromvel, Angliya burjua inqilobi, puritan, qirol Karl I, parlament, protestantlik, Yangi model armiyasi.

Ключевые слова: Оливер Кромвель, Английская буржуазная революция, пуритане, Король Карл I, парламент, протестантизм, Армия нового образца.

Key words: Oliver Cromwell, English Bourgeois Revolution, puritans, King Charles I, Parliament, protestantism, New Model Army.

KIRISH

XVII asr Angliya tarixi muhim siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlarga boy davr bo‘lib, bu davrda yuz bergen voqealar keyingi asrlardagi siyosiy tizim va boshqaruv shakllariga katta ta’sir ko‘rsatgan. Ana shu davrda faoliyat yuritgan eng muhim tarixiy shaxslardan biri bu – Oliver Kromveldir. U Angliya fuqarolar urushida yetakchi harbiy va siyosiy arbob sifatida tanilgan bo‘lib, qirollik hokimiyatiga qarshi kurashgan kuchlarning boshida turgan. Kromvelning harbiy iste’dodi, qat’iy siyosiy qarashlari va islohotchilik harakatlari tufayli u Angliya tarixida o‘chmas iz qoldirgan shaxsga aylangan.

Angliyaning taraqqiy etgan davrlari orasida XVII asr yaqqol ajralib turadi, chunki bu davrda mamlakatda nafaqat inqilob natijasida hokimiyat o‘zgarib, davlat rivoj topdi, balki taraqqiyotga erishish yo‘lining yangi bosqichiga o‘tila boshlandi. Bu bosqich esa burjua yo‘li edi. Tabiiyki, bu davrda sodir bo‘layotgan tarixiy jarayonlar nafaqat siyosiy, iqtisodiy sohalardagi o‘zgarishlarni, balki ijtimoiy hayotda amalga oshirilishi kerak bo‘lgan bir qator islohotlarni ham talab qildi. Angliya burjua inqilobi feodalistik tuzumdan kapitalistik jamiyatga o‘tish uchun dastlabki qadamlardan biri bo‘lgan edi. O‘scha davrda yangicha iqtisodiy va ijtimoiy tuzum hisoblangan kapitalistik jamiyat iqtisodiyotni yangidan rivojlanishini, iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishi bilan bir qatorda, ijtimoiy tenglik masalasini, dehqon va ishchilarning, fuqarolarning o‘z huquq va erkinliklari shakllanishini ifoda etgandi [4: 11].

ADABIYOTLAR TAHЛИILI VA METODOLOGIYA

XVI asrning o‘rtalarida Angliyadagi monastirlar tarqatib yuborilgach, ularning mol-mulki musodara qilinadi. Cherkovdan musodara qilib olingan juda ko‘p qimmatbaho va hozirgacha kirish imkonsiz bo‘lgan yerkarning aksariyat qismi bozorga tashlanadi. Bu voqealarning barchasi ingliz qishloq jamiyatining tuzilishini o‘zgartirayotgan edi. Yer kapital sarmoyalari uchun juda muhim va zarur maydonga aylandi. Eski tartiblarning saqlanib qolganligi hali ham milliy bozorning to‘liq holda rivojlanishiga to‘sinqinlik qildi, mehnat bo‘linishi esa qishloq xo‘jaligidagi kapitalistik

rivojlanish imkoniyatlarini chekladi. Shunday qilib, hatto janub va sharqning ko‘p qismlarida, Angliyaning butun bir shimoliy va g‘arbiy hududlarida hali ham qobiliyatga, kapitalga yoki o‘z mulkclarini yangi yo‘l bilan ishlatisch imkoniyatiga ega bo‘lman yer egalari mavjudligicha qoldi. Boshqa tomondan, nafaqat shimol va g‘arbdagi katta hududlar yangi o‘zgarishlardan ta’sirlanmadni, balki o‘zgarishlar sodir bo‘layotgan hududlarda ham 1640-yilga kelib dehqonlarning katta qismi yarim mustaqil dehqonlar sifatida yashashda davom etayotgan edi [1: 32].

Bu borada Oliver Kromvelning hayoti va faoliyatiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, mazkur davrda shakllangan holat va muhitdan kelib chiqib fikr yuritish maqsadga muvofiq bo‘ladi. XVII asr boshlarida Angliyada yuqorida keltirilgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy vaziyat tahlikali ko‘rinishga kelib qolgan bo‘lib, aynan bu davr Oliver Kromvelning voyaga yetib, shaxs sifatida shakllanish payti va jarayoniga to‘g‘ri kelgandi. Oliver Kromvelning hayotiga qisqacha to‘xtaladigan bo‘lsak, u 1599-yil 25-aprel kuni Xantingdonda Robert Kromvel va uning rafiqasi, Uilyam Styuardning qizi bo‘lgan Yelizaveta oilasida tug‘ilgan. Kromvel oilasining boyligi Oliverning katta bobosi Morgan Uilyamdan boshlangan. Aslida esa Oliver Kromvel Kromvellar sulolasining bir chekka, kichik tarmog‘idan kelib chiqqan bo‘lib, u Angliya qiroli Genrix VIII ning bosh vaziri bo‘lgan Tomas Kromvel bilan uzoq qarindosh edi.

Oliver Kromvelning bolalikdagi hayoti haqida nisbatan kam ma’lumotlar ma’lumdir. Shunday bo‘lsa-da, ayrim ma’lumotlar saqlanib qolgan. Oliverni o‘rab turgan oilaviy muhit puritancha ko‘rinishda edi. Boshqa bolalar yakshanba kunlari shahar o‘tloqlarida ashula aytib, o‘ynab, maroqli hordiq chiqarardilar. Oliver esa singillari bilan otasi va onasi boshchiligidan cherkovga borar, tushdan so‘ng esa otasini soatlab o‘qigan diniy kitoblariga qulop solib o‘tirar edi. Ular yosh Oliver uchun zerikarli hamda tushunarsiz holatda bo‘ldi. U 1610-yildan 1616-yilgacha Xantingdon grammatika maktabida o‘qigan bo‘lib, u yerda Oliver diniy ta’lim, axloq-odob, lotin va yunon tillari, shuningdek, biroz matematika va tarixdan iborat “klassik ta’lim” oladi [3: 43-44].

Kromvelning bilim olishdagi ikkinchi harakati Kembrijda sodir bo‘ldi. 1616-yilning aprelida otasi 17 yoshli Oliverni Kembrij universiteti qoshidagi kollejga olib keladi va bu yerda u o‘qiy boshlaydi. Lekin yosh Oliver o‘qishni yoqtirmas edi. U katta ishtiyoq bilan ot minish, suzish, koptok o‘ynash, kamondan o‘q uzish, qilichbozlik va ov bilan shug‘ullanishni yaxshi ko‘rardi. Qisqasi u sport sohasida o‘rtoqlarining havasini keltirar edi. Yosh Kromvelni universitetdagi o‘qishi bexosdan otasining o‘limi bilan to‘xtab qoldi. U oilada yolg‘iz o‘g‘il edi, shuning uchun onasiga yordamlashish maqsadida uyiga qaytishga majbur bo‘ldi, lekin Kromvel universitetdagi dunyoviy bilimlar qarshisida tiz cho‘kdi, buni umrining oxirgi daqiqalarigacha saqlab qoldi. U otasining uyida bu safar ikki yil yashadi. Shu yillar davomida u qo‘snilalarini yaxshi qobiliyatli dehqon sifatida hayron qoldiradi. Oliver

1619-yilda Londonga huquq sohasini o‘rganish uchun jo‘nab ketadi. Bunday qaror qabul qilishi mantiqan to‘g‘ri edi. Chunki qishloq yer egasiga katta miqdordagi yer va savdo ishlarini yo‘lga qo‘yish uchun huquqni bilish juda zarur edi [7: 38].

NATIJA VA MUHOKAMA

Bu davr orasida qiroq Yakov I ning amalga oshirayotgan siyosati parlament tarafdarlari, ziyoli qatlam va burjuaziya sinfi vakillari tomonidan norozilikka uchrab kelardi. Xuddi shu paytda, 1625-yilda Yakov I vafot etdi, uning o‘rniga taxtga o‘g‘li Karl o‘tirdi va Karl I nomi bilan qiroq bo‘ldi. Dastlabki davrda aholi qiroq yangiliklar tarafdoi ekanligiga umid bog‘lashadi. Lekin ma’lum vaqt o‘tgach, Karl I ning asl qiyofasi namoyon bo‘ladi, unga nisbatan ishonchszilik va salbiy fikr kuchayadi. Qiroq bilan parlament o‘rtasidagi uzilish ma’lum muddat davom etadi. Parlament ifodalagan burjuaziya va dvoryanlarning barcha sohalaridagi qarashlariga qiroq birinchi qadamlaridanoq qarama-qarshi bo‘ldi. Oxir-oqibat qiroq Karl I 1628-yilda parlamentni tarqatib yuboradi.

Mamlakatdagi mavjud vaziyat boshqalar qatori O.Kromvelga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatgan edi. 1630-yilda Xantingdonda shahar nizomi bo‘yicha katta tortishuv yuz beradi va bu bahsda Kromvel mag‘lub bo‘lgan tomon safida bo‘lgandi. Bundan tashqari, u moliyaviy muammolarga duch kelgan va natijada Xantingdondagi mulklarini sotishga majbur bo‘ladi hamda yaqin atrofdagi Sent-Ayves shahriga ko‘chib o‘tadi. Kromvel oilasining Sent-Ayvesdagi hayoti tarixiy dalillar nuqtai nazaridan deyarli noma’lum, hatto ular shaharning qaysi qismida yashaganliklari haqida ham aniq ma’lumot yo‘q. Ular bu yerda, asosan, ijara debqon sifatida yashashgan va moliyaviy jihatdan ancha og‘ir sharoitda bo‘lishgan. 1636-yilda Oliverning omadi birdan yurishib ketadi, bunga onasining akasi, ya’ni tog‘asi hisoblanmish Tomas Styuard tomonidan unga qoldirilgan meros sabab bo‘ldi. Bu meros ichiga Ili shahridagi mulklar va ijara haqlari, jumladan, sobor yaqinidagi qulay uy ham kirgan. Ushbu uy keyingi bir necha yil davomida Kromvel oilasining yashash joyiga aylangan va hozirgacha saqlanib qolgan. Oradan ma’lum bir vaqt o‘tgach, Kromvel Ili shahrida yashab turgan paytda qiroq Karl I parlamentni yana chaqiradi. 1640-yilda Kromvel Kembrij shahri okrugi nomidan parlament a’zosi sifatida qayta saylanadi. Bu voqeal Oliver Kromvelning siyosiy faoliyatidagi yangi bosqichni boshlab bergen bo‘lib, keyingi yillarda sodir bo‘lgan tarixiy jarayonlar bunga yaqqol isbot bo‘la oldi [7: 68].

Angliya burjua inqilobi – bu parlament tarafdarlari, asosan, burjuaziya va puritanlar bilan qiroq hokimiyati va uning tarafdarlari o‘rtasidagi kurash hisoblanadi. Inqilob siyosiy erkinliklar, burjua manfaatlarini himoya qilish va konstitutsiyaviy boshqaruvga o‘tish uchun olib borildi. Mazkur inqilob o‘zining boshlanishi bilan jamiyatda yangi siyosiy tartibot – konstitutsiyaviy monarxiya uchun asos yaratdi. Mazkur burjua inqilobining boshlanishiga olib kelgan asosiy sabablari haqida qisqacha to‘xtalib o‘tilsa, bunga Karl I tomonidan parlament vakolatlarini cheklash uchun

amalga oshirgan harakatlari, qirolning shaxsiy hokimiyatga intilishi va parlamentni mensimasligi, shuningdek, parlamentni bir necha yilga tarqatib yuborib, hokimiyatni o‘zi mustaqil idora qilishi kabi omillarni misol qilib keltirish mumkin. Bundan tashqari, Angliyada bozor iqtisodiyoti rivojlanib, burjua sinfi taraqqiy etib kelayotgandi, soliqlar og‘irligi esa asosan ishlab chiqaruvchi va savdo bilan shug‘ullanuvchi sinf zimmasiga tushgan edi. Qirol mulk egalari va burjua sinfining iqtisodiy manfaatlariga zid siyosat yuritdi. Qolaversa, Karl I anglikan cherkovini majburan kuchaytirishga harakat qildi. Puritanlar esa diniy erkinlikni talab qildilar. Bularning barchasi ingliz burjua inqilobining boshlanishiga sabab bo‘lgan asosiy omillar hisoblanadi.

Qisqa qilib aytganda, XVII asrning birinchi yarmida Angliyada yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy tanglik burjua inqilobiga olib kelgan asosiy sabab bo‘ldi. Bu davrda jamiyatda yangi kuch sifatida shakllanayotgan burjua sinfi – savdogarlar, yirik mulkdor dehqonlar, sanoatchilar o‘z iqtisodiy qudrati ortidan siyosiy vakillikni talab qila boshladilar. Ammo bu manfaatlar qirol hokimiyati tomonidan mensilmay, aksincha, mutlaq monarxiya kuchaytirishga harakat qilindi. 1603-yilda taxtga o‘tirgan qirol Yakov I parlament vakolatlarini cheklashga urindi. Uning o‘g‘li Karl I esa bu siyosatni yanada keskin shaklda davom ettirdi. U parlamentni chaqirmasdan soliqlar yig‘di, dindor puritanlarga nisbatan ta’qiblar o‘tkazdi, hatto 1629 – 1640-yillarda parlamentni butunlay tarqatib yuborib, davlatni o‘z boshqaruvida olib bordi. Ushbu “parlamentsiz boshqaruv” davrida qirol Karl I Shotlandiyaga qarshi diniy islohotlar sabab urush boshlab, moliyaviy inqirozga uchradi. Natijada u 1640-yil noyabr oyida “Uzoq parlament”ni chaqirishga majbur bo‘ldi. Aynan Uzoq parlament faoliyati boshlangan davrdan e’tiboran Angliya burjua inqilobi rasman boshlanadi. Bu parlament qirol vakolatlarini cheklash, sud tizimini isloh qilish va fuqarolik erkinliklarini ta’minalashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Inqilob chuqurlashib borgach, 1642-yilda qirol bilan parlament o‘rtasida qurolli to‘qnashuv – fuqarolar urushi yuzaga keladi. Mazkur inqilob jarayonida Oliver Kromvel kabi arboblar siyosiy sahnaga chiqib, tarixda muhim iz qoldirish uchun poydevor qo‘ya boshladilar [8: 75-76].

Burjua inqilobi davrida boshqalar qatori Oliver Kromvel ham siyosiy maydon sari oldinga chiqib, Angliya tarixida o‘z o‘rniga ega bo‘la boshladi. Lekin u inqilob jarayoniga qanday kirib kelgan edi, qanday qilib u siyosat olami sari oldinga qadam tashlagan edi? Oliver Kromvelning siyosatga kirib kelishi 1628-yilga to‘g‘ri keladi.

Xantingdonda qirol Oliverni parlamentga ikkita vakil saylash to‘g‘risidagi buyrug‘i olinganligidan so‘ng ulardan biri etib tayinlaydi. Shu tariqa Kromvel ilk bor parlamentga saylanadi. Mazkur parlament 1628-yilning 17-martida Vestminster saroyida chaqirildi. Kromvel birinchi bor umum palatalarining qadimiy qubbalarini ko‘radi. Bu yig‘ilishda u oxirgi kursida jimgina sukut saqlab o‘tirardi. Lekin bu yerda

u ko‘rgan va eshitganlari tug‘ilgan shahrining sokin bag‘rida uning fikr-u xayolida shakllanayotgan siyosiy kurash to‘g‘risidagi qarorlarini amalga oshirish uchun katta maktab bo‘ldi. Mana shu yerda Kromvel birinchi marta jang maydonida yuzma-yuz keladigan kelajakdagi dushmanlari bilan uchrashdi. Shu tariqa uning parlamentdagi ilk siyosiy faoliyati boshlangan edi. Oradan ma’lum bir muddat o‘tgach, Angliya parlamenti tarixida hech bo‘lmagan voqeа yuz beradi, ya’ni parlament qirogiga bo‘ysunishdan bosh tortadi. Qirol parlamentni tarqatib yuborish to‘g‘risida buyruq beradi. Qirol idorasiga bosh egmaganlar orasida Oliver Kromvel ham bor edi. Shunday qilib, Karl I ning o‘n bir yillik yolg‘iz idora qilishi boshlanadi. 1628-yilga kelib parlament tarqatib yuboriladi, Kromvel esa o‘zining qishloq hayotiga qaytishga majbur bo‘ladi.

1640-yilga kelib Angliyadagi siyosiy va iqtisodiy inqiroz o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga yetdi. Qirol Karl I uzoq yillar davomida parlamentsiz boshqaruv yuritib kelgan bo‘lsa-da, bu siyosat o‘z samarasini bermadi. Xususan, Shotlandiyadagi qo‘zg‘olon va urush xarajatlari qirol xazinasini bo‘shashtirib yubordi. Ushbu vaziyatda Karl I parlament chaqirishga majbur bo‘ldi. 1640-yilning 3-noyabrida chaqirilgan “Uzoq muddatli parlament” qirol hokimiyati ustidan sezilarli ta’sir o‘rnatdi. Bu parlament tarkibiga muxolifat yetakchilari xalq orasida olib borgan muvaffaqiyatli tashviqot ishlari natijasida saylanib keladi [9: 147].

1640-yilda Angliyada qirol hokimiyatiga qarshi ijtimoiy-siyosiy kuchlar misli ko‘rilmagan darajada birlashdi. Jamiatning deyarli barcha qatlamlari – burjuaziya, yer egalari, shahar aholisi va hatto ayrim zodagonlar qirol Karl I ning mutlaq boshqaruv tizimiga qarshi bir yoqadan bosh chiqarib harakat qila boshladilar. Parlament ichidagi yakdillik barham topdi. Lordlar va konservativ yer egalari uchun quyi palata yetakchilarining siyosati, ularning parlament tashqarisidagi jamoatchilik fikriga murojaat qilishga tayyorligi, mavjud ijtimoiy tartibning izdan chiqishiga olib kelayotgandek tuyuldi. Bu esa ularning jamiatdagi ustun mavqeini xavf ostiga qo‘yishi mumkin edi. Natijada ular asta-sekin qirol tarafдорлари safiga qayta boshladilar. Butun mamlakat miqyosida bu bo‘linish asosan ijtimoiy sinflar asosida yuz berdi.

1641-yilda “Grand Remonstrance”, ya’ni “Katta norozilik bayonnomasi”ning nashr etilishi parlamentda keskin qarama-qarshiliklarni yuzaga keltirdi. Bu hujjat qirol Karl I hukumatini jamoatchilik oldida ochiq tanqid qilgan bo‘lsa-da, uning e’lon qilinishi atigi o‘n bitta ovoz bilan tasdiqlangan edi. Natijada, parlamentdagi birlik tamoman barham topdi va siyosiy kuchlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar yarashib bo‘lmas darajaga yetdi. Qirol tarafдорлари, ya’ni kelajakdagi royalistlar parlamentdan chiqib ketdilar. Bu qaror an’anaviy diniy tuzumga emas, balki chuqurroq iqtisodiy va ijtimoiy xavotirlarga borib taqalardi. Ayrim lordlar fikricha, agar cherkovdagи mulklar musodara qilinsa, tez orada bu siyosat boshqa yirik yer egalariga, mulkdorlarga ham

taalluqli bo‘lib qolishi mumkin edi. Shu nuqtadan boshlab inqilobiy harakatlar ichkaridan yemirila boshladi. Katta burjuaziya vakillari dastlab inqilobiy g‘oyalarning asosiy tarafdorlari bo‘lishlariga qaramay, ommanning tobora radikallahib borayotgan talablari oldida cho‘chiy boshladilar. Ular qirollik tizimini butkul yo‘q qilish emas, balki uni o‘z manfaatlariga mos ravishda isloq qilish tarafdori edilar. Xalq ommasining tenglik borasidagi talablarini o‘ta xavfli deb hisoblagan burjuaziya inqilobiy to‘lqinni jilovlashga urinib ko‘rdi. Shu sababli ayrim yer egalari parlamentdan voz kechib, qirol tomoniga o‘tib ketdilar. Bu o‘zgarishlar shuni ko‘rsatdiki, ijtimoiy tenglik uchun kurash xalq manfaatiga mos bo‘lsa-da, mulkdor sinflar uchun tahdid sifatida qabul qilinayotgan edi. Shunga qaramay, bu sinfiy qo‘rquv qirol Karl I ga o‘zining almashtirib bo‘lmas hokim ekaniga ishonch bag‘ishladi. Qirol har qanday murosa takliflarini rad etadi, siyosiy kelishuvga erishish yo‘llari yopildi. Natijada, 1642-yilning yozida Angliyada ochiq fuqarolar urushi boshlanadi [6: 195-197].

Fuqarolar urushi boshlanganidan so‘ng, qirol hokimiyatiga qarshi olib borilayotgan kurashda nafaqat parlament ichida, balki undan tashqarida ham strategik yo‘nalishlar va urush olib borish uslublariga nisbatan qarama-qarshi fikrlar paydo bo‘ldi. Qirol tarafdorlari – “Kavalerlar” deb nom olgan zodagonlar qo‘sishlari bo‘lib, ular o‘zlarining ijtimoiy tabaqaviy pozitsiyasi va an‘anaviy tartibdagi harbiy tayyorgarliklari tufayli muayyan ustunliklarga ega edilar. Boshqa tomonidan, parlament tarafdorlari – “Roundheads”, ya’ni “Yumaloq boshlilar” deb nom olgan kuchlar bo‘lib, ular asosan yirik shaharlarda joylashgan, burjuaziya sinfiga mansub savdogar va hunarmandlar tomonidan qo‘llab-quvvatlangan edi. Ular urush uchun zarur moliyaviy resurslarni ta’milagan bo‘lsalar-da, dastlab jangovar harakatlarda tajribasizlik ularning zaif jihatlaridan biri bo‘lgandi.

Oliver Kromvel fuqarolar urushi davrida o‘zida shakllangan harbiy va siyosiy salohiyatini ilk bor amalda namoyon etdi. U mavjud muammolarni, ya’ni parlament kuchlaridagi intizom yetishmovchiligi, feodal qoidalar asosida lavozimlarni tayin qilishlari va ijtimoiy tabaqalashtirishni bartaraf etishga kirishdi. Kromvel inqilobiy xarakterga ega bo‘lgan urushni aynan inqilobiy tamoyillar asosida tashkil etish zarurligini chuqur anglab yetgan holda harbiy islohotlarni boshladi. Sharqiy grafliklarda tuzilgan uning harbiy qismlarida ofitserlik lavozimlari ijtimoiy kelib chiqishga emas, balki askarlarning layoqati va fidoyiliklariga asoslangan holda taqsimlandi. Kromvel bu borada shunday fikr bildirgan edi: “Men nima uchun kurashayotganini biladigan va bilganini sevadigan, oddiy, qo‘ng‘ir to‘n kiygan kapitanni afzal ko‘raman, vaholanki, siz “janob” deb atagan va boshqa hech qanday fazilati bo‘lmanan kishidan ko‘ra.” Kromvel askarlardan faqatgina harbiy, jismoniy jasoratni emas, balki ichki e’tiqod va g‘oyaviy tushunchani, ya’ni “masalaning ildizi”ni tushunishni talab qilgan. Shu bilan birga, u armiyada turli fikrlarning ochiq muhokama

qilinishiga ham ruxsat bergen, bu esa uning demokratiyaga moyilligini ko‘rsatadi [5: 214].

Kromvelning siyosatchi va davlat arbobi sifatida kuchayib borayotgan qudrati, siyosiy va konstitutsiyaviy rivojlanishlarga ta’sir ko‘rsatuvchi shaxs sifatidagi mavqeい, uning sodiq va kuchli armiyasi bo‘lgan muvaffaqiyatli harbiy qo‘mondon sifatidagi mavqeiga asoslangan edi. 1642-yilning yozida fuqarolar urushi boshlangan paytidan buyon, Kromvel parlament tarafdori sifatida qat’iy pozitsiyada edi, u qurol olgan birinchi parlament a’zolaridan biri bo‘lib, otliq askarlar bo‘linmasi sardori sifatida tayinlangan edi. 1643-yilda Oliver Kromvelning amalga oshirgan ishlari uning shaxsiy harbiy faoliyati taraqqiyotida muhim bosqich bo‘lgan bo‘lsa-da, fuqarolar urushining umumiyl natijalari va parlament armiyasining strategik yutuqlari nuqtai nazaridan nisbatan cheklangan ahamiyat kasb etgan edi.

Oliver Kromvel fuqarolar urushining ikkinchi bosqichida harbiy lavozim jihatidan yuqoriroq pog‘onaga ko‘tariladi, shunday bo‘lsa-da, bu davrda u mustaqil strategik yetakchi sifatida emas, balki yirik harbiy tuzilmalar doirasida ikkinchi darajali rahbar maqomida faoliyat yuritgan. 1644-yilda Kromvel Sharqiy uyushma armiyasida otliq qo‘shin qo‘mondoni va armiyaning bosh qo‘mondoni hisoblangan Manchesterning bevosita qo‘l ostida xizmat qilgan. Shunga o‘xshash tarzda, 1645 – 1646-yillarda u Yangi namunadagi armiyaning otliq kuchlariga boshchilik qilgan va bu davrda Ferfaks boshchiligidagi parlament armiyasining ikkinchi raqamli harbiy yetakchisi sifatida harakat qilgan edi. Mazkur yillarda Kromvel qatnashgan harbiy operatsiyalarning aksariyati, jumladan Bridjuoter, Bristol, Ekseter, Sherborn va Oksforddagagi qamal operatsiyalari hamda Marston Mur, Nezbi, Langport, Nyuberi hududidagi ikkinchi jang va Torringtondaggi hal qiluvchi janglar muvaffaqiyat bilan yakunlangan bo‘lsa-da, ushbu harakatlarda u bosh qo‘mondon sifatida yetakchi rol o‘ynamagan. Shu sababli, bu operatsiyalarda Kromvelning shaxsiy, alohida harbiy strateg sifatidagi hissasini aniqlash qiyin bo‘lib qoladi. Biroq, Kromvel ushbu davr ichida ayrim qisqa muddatli, nisbatan avtonom harbiy yurishlarni amalga oshirgan. Jumladan, 1644-yil mart oyida Bukiqemshir va Oksfordshir chegaralarida o‘tkazilgan o‘n kunlik harakatlar hamda 1645-yil aprel boshidan may oyi boshigacha davom etgan to‘rt haftalik operatsiyalar shular jumlasidandir. Biroq bu yurishlarning harbiy-strategik maqsadlari cheklangan bo‘lib, ular keng miqyosli natijalarga olib kelmagan. Shunday qilib, Kromvelning bu davrdagi faoliyati yirik urush taqdirini belgilovchi mustaqil strateg emas, balki muvaffaqiyatli ikkinchi darajali harbiy rahbar sifatidagi mavqe bilan belgilanadi.

Oliver Kromvelning 1644 hamda 1645 – 1646-yillardagi parlament armiyasi yurishlariga qo‘shgan harbiy hissasi, shuningdek, fuqarolar urushidagi umumiyl g‘alabada tutgan o‘rni ikki asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Ulardan biri hujjatlar

bilan yaqqol tasdiqlangan bo‘lsa, ikkinchisi nisbatan mavhum bo‘lib, tarixiy nuqtai nazardan bevosita baholash biroz qiyinroqdir.

Birinchisi, aniq hujjatlashtirilgan jihat – Kromvelning asosiy janglarda parlamentchilar armiyasining muhim qanotlariga bosh qo‘mondonlik qilgan vaqtlardagi faoliyati bilan bog‘liqdir. Jumladan, u 1644-yil 2-iyulda bo‘lib o‘tgan Marston Mur jangida armiyaning chap qanotiga, 1645-yil 14-iyundagi Nezbi jangida esa armiyaning o‘ng qanotiga rahbarlik qilgan. Mazkur strategik ahamiyatga ega to‘qnashuvlarda Kromvel qirol tarafdarlarining otliq qismlariga qarshi o‘z otliq qo‘shinlarining bir qismini yuqori samaradorlik bilan qo‘llagan. U jang jarayonida harbiy intizomni saqlashga alohida e’tibor qaratib, birinchi safdagi otliq qismlarning jang maydonini tark etib, talonchilik yoki dushmanni quvish bilan chalg‘ishini cheklagan, orqa safdagi zaxira kuchlarni esa bevaqt jangga jalb qilinishidan tiygan.

Ikkinchi jihat – Kromvel parlamentchilar armiyasining ruhiyatini ko‘tarishga va uni yuqori darajada ushlab turishga hissa qo‘shgan bo‘lishi mumkinlidigadir. 1645-yil bahorida Kromvel Yangi namunadagi armiyaga qo‘shilganida, u yerda xizmat qilayotgan askarlar tomonidan iliq va olqishlar bilan kutib olinishi, uning safdoshlari orasidagi obro‘-e’tiborining yuksakligini va ruhiy barqarorlikni ta’minalashdagi rolini ko‘rsatadi [2: 385-388].

1645-yilda parlament urushni oxirigacha olib borishga bo‘lgan qat’iy niyatini yana bir bor tasdiqladi. U “O‘zidan voz kechish to‘g‘risida qaror”ni qabul qildi. Unga ko‘ra, Tomas Ferfaks boshchiligidida Yangi namunadagi armiya shakllandi. Oliver Kromvel esa bu armiyada otliq qo‘shinlar leytenant-generali va bosh qo‘mondonning ikkinchi yordamchisi sifatida tayinlandi. 1645-yil 14-iyundagi Nezbi jangi va 10-iyuldagagi Langport jangida parlament kuchlari Karl I ning qo‘shinlarini deyarli butunlay tor-mor keltirishga muvaffaq bo‘ldi. 1646-yilda qirol Karl I shotlandlardan yordam so‘rashga majbur bo‘ladi, lekin oradan ko‘p o‘tmay u shotlandlardan tomonidan qamoqqa olinib, parlamentga topshiriladi. Ushbu voqeal tarixiy nuqtai nazardan Birinchi Angliya fuqarolar urushining yakun topgan bosqichi sifatida e’tirof etiladi [10: 413].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Oliver Kromvel XVII asr Angliya tarixida chuqur iz qoldirgan arbob sifatida e’tirof etiladi. Uning siyosiy sahnaga chiqishi va fuqarolar urushidagi faol ishtiroki Angliyada monarxiya va parlament o‘rtasidagi kuchlar muvozanatini tubdan o‘zgartirdi. Kromvelning puritan e’tiqodiga sodiqligi, harbiy iqtidor va qat’iyati tufayli u nafaqat qirol Karl I ni mag‘lub etishga, balki yangi tartib va boshqaruv tizimini shakllantirishga ham muvaffaq bo‘ldi. Yangi model armiyasining tashkil etilishi esa zamonaviy harbiy tuzilmalarning poydevoriga aylangan muhim islohot bo‘ldi. Kromvel faoliyati ko‘plab bahs-munozaralarga sabab

bo‘lishiga qaramay, u Angliya burjua inqilobining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri sifatida tarixda o‘z o‘rnini mustahkamladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Davies G. The Early Stuarts, 1603 – 1660. – Oxford: Oxford University Press, 1959. – 492 p.
2. Firth C. Oliver Cromwell and The Rule of The Puritans in England. – New York: G.P. Putnam’s Sons, 1900. – 584 p.
3. Gaunt P. Oliver Cromwell. – Oxford: Wiley-Blackwell, 1997. – 280 p.
4. Hill C. The English Revolution 1640. – London: Lawrence and Wishart, 1940. – 64 p.
5. Hutton R. Oliver Cromwell: Commander in Chief. – New Haven: Yale University press, 2024. – 480 p.
6. Hyde E. The History of the Rebellion and Civil Wars in England. Vol. I. – Oxford, 1702. – 557 p.
7. Morrill J. Oliver Cromwell. – Oxford: OUP, 2007. – 144 p.
8. Morrill J. Seventeenth-Century Britain, 1603 – 1714. – Folkestone: Dawson, 1980. – 189 p.
9. Underdown D. Revel, Riot and Rebellion: Popular Politics and Culture in England, 1603 – 1660. – Oxford: Clarendon Press, 1985. – 324 p.
10. Woolrych A. Britain in Revolution, 1625 – 1660. – Oxford: Oxford University Press, 2002. – 842 p.